

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori A.K. Shadmanov

20 23 yil «30» 08

Ro'yxatga olindi:

№ B.L.T-60911100

1.38

INB SINO TIB QONUNLARI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	900 000	–	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910 000	–	Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishlari:	60911100	–	Xalq tabobati

Fan/Modul kodi ISTQ1204		O'quv yili 2023/2024	Semestr 2	ECTS/Kreditlar 4
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fan/Modulning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ibn Sino tib qonunlari	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari, uning mohiyati bilan tanishtirish va o‘z kasbiy faoliyatlarida undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.</p> <p>Fanning vazifasi – Ibn Sinoning tibbiyot rivojiga qo‘shgan hissasini yoritish, uning “Tib qonunlari” asarining tibbiyot fanidagi o‘rni va ahamiyatini asoslash, bu asarda berilgan tavsiyalarni to‘g‘ri tahlil qilish, bemorlarni Ibn Sino usuli asosida tashxiz qo‘yish, davolash va parvarish qilishga yo‘naltirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</p> <p>II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Somoniylar davlatining ijtimoiy-madaniy muhiti.</p> <p>Davlatchilikning IX – XII asrlardagi taraqqiyoti, mahalliy sulolalarining hokimiyat tepasiga kelishi. Xalifalikdagi ma’naviy hayot. Somoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi, dargoh va devon boshqaruv tizimi. Ismoil Somoniy va uning markazlashgan davlati. Somoniylar sivilizatsiyasi vujudga kelishidagi muhim omillar. Somoniylar davlatida musulmon dunyosi madaniyatining aks etishi. Buxoro – Somoniylar davlatining poytaxti. Somoniylarning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari va ularning tabobat rivojiga ta’siri. «Sivon-al Hikmat» va uning turli sohalar rivojida ahamiyati. Somoniylar davlatida tabobat ilmi, shifoxonalar, dorixonalarining tashkil etilishi va ularning faoliyati.</p> <p>2-mavzu. Abu Ali Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati.</p> <p>Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Xasan ibn Ali – Abu Ali ibn Sinoning kelib chiqishi haqida umumiy ma’lumotlar. Ibn Sinoning bolalik yillari. Ibn Sino oilasining Buxoraga ko‘chib kelishi, bu erda o‘qishni boshlashi va Qur’onni yod olishi. Ibn Sinoning birinchi ustozlari. Abu Mansur al-Xasan ibn Nuh al-Kumriyning Ibn Sinoga tabobat ilmidan dars berishi. Ibn Sinoning Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilishi. Uning ilk asarlari. Buxoroni tark etib, Xorazmga ko‘chib kelishi. Ma’mun akademiyasidagi faoliyati. Ibn Sinoning Jurjonga ko‘chib ketish sabablari. Jurjonda mantiq, falsafa fanlariga oid risolalari, «Tib qonunlari»ning dastlabki qismlarining yaratilishi. Ibn Sino Hamadonda saroyga taklif qilinishi va vazirlik mansabiga ko‘tarilishi. Isfahondagi faoliyati. Ibn Sinoning vafoti va</p>			

Hamadonga dafn etilishi.

3-mavzu. Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosi va tabiiy fanlarning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi.

Ibn Sino qomusiy olim. Ibn Sino merosining shartli ravishda qismlarga bo‘linishi. Ibn Sinoning falsafa va mantiqqa oid asarlari, ularga qisqacha izoh. Ibn Sinoni Riyoziyotning rivojlanishiga qo‘shgan hissasi. Olimning kimyo sohasi bo‘yicha asarlari turkumi. Ibn Sinoning tib (tibbiyot)ga oid asarlari. Ibn Sinoning dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlari. Ibn Sino va musiqa, poeziya. Ibn Sinoning ilmiy yutuqlari.

Ibn Sinoning fanlar tasnifi. Ibn Sinoning tabiatga bo‘lgan qiziqishi. Tabiat qonuniyatlari, yil fasllarining tabiatlari haidagi ta‘limotlari. «An-Nabot» («o‘simliklar» - botanika) va «al-Hayvon» («Zoologiya») haqidagi qarashlari. Botanikada turli o‘simliklarning tabiiy xususiyatlarini o‘rganishi. Ibn Sinoning astrologiyadagi yutuqlari, astronomik asbobning yaratishi. Ibn Sino tomonidan Alximiyaning tanqid qilinishi. Ibn Sinoning organik kimyo haqidagi tushunchalari va o‘z tajribalarida anorganik moddalardan keng foydalanganligi. Ibn Sino tomonidan dorivor moddalarning kimyoviy tarkibi, moddalarning doimiy va ma‘lum tarkibda bo‘lishini ta‘riflanishi. Ibn Sinoning qarashlarida atom – molekulyar ta‘limoti dastlabki tushunchalarining shakllanishi.

4-mavzu. Abu Ali Ibn Sinoni Tib qonunlarida tibbiyotning falsafiy asoslari - elementlar haqida ta‘limot.

Ibn Sinoning falsafiy asarlari tasnifi. Ibn Sino falsafiy dunyoqarashida Forobiy asarlarining ta‘siri. Zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Ibn Sino falsafasida substansiya, aksidensiya, shakl, aql, unsur, jism, quvvat, sezish, mineral, hayvon, nutq, lison kabi kategoriyalarning ta‘riflanishi. Ibn Sinoning dastlabki to‘rt element, materiya haqidagi ta‘limoti. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida bilish masalasi. Ibn Sinoning mantiq ilmida aql nazariyasi, ularning tibbiyot ilmida namoyon bo‘lishi.

5-mavzu. Tib qonunlari – tibbiyotning mukammal ensiklopediyasi.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari tasnifi. «Kitob al – Qonun fi-t-tib» asarining 1015-1024 yillar mobaynida yozilganligi. Tib qonunlarida “tibbiyot” tushunchasiga berilgan ta‘rif va uning ahamiyati. Tib qonunlarining qismlari va ularga izoh. Tib qonunlarida: tabobatning umumiy nazariy masalalari, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning alomatlari, sog‘liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish (profilaktika) masalalari, kasalliklarni umumiy davolash prinsiplari, dorishunoslik.

6-mavzu. Tib qonunlarida axloq va tibbiyot etikasi.

Ibn Sinoning aql haqidagi qarashlari. YAxshi va yomon xulqlarda tashqi ta‘sirning roli. Nafs tarbiyasi, hayvoniy nafs haqida tushuncha. Axloqiy g‘oyalar: insof, xayr va fazilatga da‘vat. Ibn Sinoning axloq-odobga oid teran fikrlari, insoniy fazilatlarining go‘zal ta‘riflari, axloqiy xislatlar. Gumanizm - Tib qonunlarining asosiy g‘oyasi. Tib qonunlarida shifokorning bemorga bo‘lgan munosabatini yoritilishi. Ibn Sino qarashlarida shifokorning axloqiy qiyofasi. Ibn Sinoning “shifokor bemorning do‘sti, ustoz va yordamchisi” g‘oyasi, “kasallikni

emas, bemorni davolash” tamoyili.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Abu Ali Ibn Sinoning tarjimai holi.

2-mavzu: Ibn Sino ilmiy merosining inson sivilizatsiyasi rivojida tutgan o‘rni.

3-mavzu: Ibn Sinoning tabiiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi.

4-mavzu: Ibn Sino falsafasi.

5-mavzu: Tib qonunlarining yaratilish tarixi va zamonaviy tibbiyot ilmi rivojidadagi o‘rni.

6-mavzu: Ibn Sinoning mizoj, unsurlar, xilt va quvvatlar haqidagi ta‘limoti.

7-mavzu: Tib qonunlarida inson anatomiyasidagi yangiliklar va ularning ahamiyati.

8-mavzu: Ibn Sino ta‘limoti bo‘yicha tashxis qo‘yish.

9-mavzu: Tib qonunlarida kasalliklar, ularning asosiy sabablari va ko‘rinishlari haqida yoritilishi.

10-mavzu: Tib qonunlarida sog‘liqni saqlash tadbirlari.

11-mavzu: Tib qonunlari va Ibn Sinoning ekologiya haqidagi ta‘limoti.

12-mavzu: Ibn Sino ta‘limotida umumiy davolash usullari.

14-mavzu: Tib qonunlarida axloqiy masalalar va ularning tibbiyot etikasi shakllanishidagi o‘rni.

15-mavzu: Ibn Sino ta‘limotida jarrohlik amaliyoti.

16 mavzu: Ibn Sinoning pediatriya sohasidagi yangiliklari, bolani parvarish qilishdagi tavsiyalari.

17-mavzu: Ibn Sino ta‘limotida jigar kasalliklari tasnifi va diagnostikasi.

18-mavzu: Tib qonunlarida o‘sma kasalliklarning tasnifi.

19-mavzu: Tib qonunlarida yuqumli kasalliklar va ularga qarshi kurash tadbirlari.

20-mavzu: Tib qonunlarida jismoniy mashqlar va ularning davolash va kasallikni oldini olishdagi ahamiyati.

21-mavzu: Ibn Sino ta‘limotida parhezning ahamiyati.

22-mavzu: Balog‘atga yetgan kishilar uchun umumiy bo‘lgan tadbirlar

23-mavzu: Tib qonunlarida umumiy, xususiy va klinik farmakologiya masalalari.

24-mavzu: Buyuk allomalar va olimlar Ibn Sino va Tib qonunlari haqida.

IV. Amaliy ko‘nikmalar

Modul davomida talabalar Ibn Sinoning Tib qonunlarida anatomiya, fiziologiya, patologiya, diagnostika, dorishunoslik, taksikologiya, terapiya,

jarrohlik, nevrologiya, psixiatriya, akusherstvo va genekologiya, travmatologiya, parazitologiya va yuqumli Tib qonunlarining jahon tibbiyoti taraqqiyoti rivojidadagi o‘rni; tomonidan Ibn Sino tib qonunlari modulidan olgan bilimlarni nazariy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. X-XI asrlarda ilmlar tasnifi masalasi yoritilishi va unda Ibn Sinoning o‘rni.
2. Shifokor portreti – Ibn Sino fenomeni.
3. Beruniy va Ibn Sino hamkorligi.
4. Buxoro ta’lim tizimi va “Dor ush-shifo” oliy o‘quv dargohi faoliyati.
5. Ibn Sinoning Xorazm Ma’mun akademiyasidagi faoliyati.
6. Ibn Sinoning ilmiy merosi.
7. Ibn Sinoning yil fasllarining tabiatlari haqidagi qarashlari.
8. Ibn Sino falsafasi va tibbiyotida tana va ruh birligi.
9. Ibn Sinoning musiqiy qarashlari.
10. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari - o‘rta asr tibbiyoti asosi.
11. Ibn an-Nafis “Mujaz al qonun” asarining “Tib qonunlari”ni o‘rganishdagi o‘rni.
12. Yil fasllarining kishi organizmiga ta’siri.
13. Ibn Sinoning mijoz belgisi haqidagi qarashlari.
14. Tib qonunlarida ob-havoning mizojga tasiri haqidagi qarashlari.
15. Ibn Sinoning xiltlar to‘g‘risidagi fikrlari.
16. Ibn Sino asarlarida pulsning diagnostik ahamiyati haqidagi ta’limoti.
17. Morfologiya fani shakllanishi va taraqqiyotida Ibn Sinoning roli.
18. Ibn Sino ta’limotida kasalliklarning sabablari.
19. Nevrologiyada Ibn Sino ta’limoti va uning zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati.
20. Tib qonunlarida isitma bilan o‘tadigan kasalliklar ta’rifi.
21. Tib qonunlarida bola parvarishining o‘ziga xos tomonlari.
22. Ibn Sino sog‘liqni saqlash va gigiena to‘g‘risida .
23. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari.
24. Ibn Sinoning to‘g‘ri ovqatlanish to‘g‘risidagi fikrlari.
25. Ibn Sino asalning shifobaxsh xususiyatlari haqida.
26. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino sutni shifobaxsh xususiyatlari haqida.
27. Ibn Sino ta’limotida mineral suvlar bilan davolash.
28. Ibn Sino tabobati davolash ilmi: ruhiy davolash.
29. Ibn Sino tabobati davolash ilmi: uyquni tartibga solib davolash.
30. Ibn Sino tabobati: dorilarni yig‘ish va saqlash.
31. Ibn Sino: tibbiy tushunchalar lug‘ati.
32. Ibn Sino asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari.
33. Ibn Sinoning shogirdlari haqida ma’lumotlar.
34. Tibbiyot muammosi: Tib qonunlarida muhabbat etikasi.
35. Tib qonunlarida turli yoshdagi (bola, balog‘at yoshi va keksalar)insonlarga berilgan o‘gitlar.

	<p>36. Tib qonunlarida tibbiyot fani: uning nazariyasi, kashfiyotlari, yutuqlari. 37. “Tib qonunlari” asarini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilgan olimlar. 38. Barkamol avlodni tarbiyalashda Abu ali Ibn Sino asarlarining o‘rni va roli. 17. Tib qonunlarida tibbiyot fani: uning nazariyasi, kashfiyotlari, yutuqlari. 18. “Tib qonunlari” asarini o‘zbek va rus tillariga tarjima qilgan olimlar. 19. Barkamol avlodni tarbiyalashda Abu ali Ibn Sino asarlarining o‘rni va roli.</p>
3.	<p>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Ibn Sino yashagan tarixiy davr, uning o‘ziga xos tomonlari; • Ibn Sinoning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi, uning tibbiyot ilmi rivojlanishiga qo‘shgan hissasi; • Tib qonunlarining ilmiy ahamiyati va xalq tabobatida tutgan o‘rni; • Tib qonunlarining falsafiy asoslari; • Tib qonunlarining tuzilishi va mohiyati; • Tib qonunlarida axloq va tibbiyot etikasi; • Tib qonunlarida bola tarbiyasi haqidagi <i>tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)</i> • mizoj, unsurlar, xilt va quvvatlar; • Tib qonunlari asosida odam anatomiyasi; • Ibn Sinoning bemorlarga tashxis qo‘yish uslubi; • -Tib qonunlariga asosan bemorlarni parvarishlash va umumiy davolash tavsiyalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)</i> • axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi; yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka).</i>
4.	<p>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (vebinarlar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo‘lib ishlash.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvoffaqiyatli topshirish.</p>

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Tarjimonlar: A. Rasulev, K. Mirzaev, U.I. Karimov, A. Murodov. 1, 2, 3, 4, 5-kitoblar. – Toshkent 2020 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino merosi – bebaho xazina . X xalqaro Ibn Sino o‘qishlari ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro. 2019 y.
2. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 1993 y.
3. Boltaev M. N. Abu Ali ibn Sina – – velikiy mislitel`, ucheniy entsiklopedist srednevekogo Vostoka. Moskva. 2002 g.
4. Glyantsev S.R. Uchenie sh pulse Avitseni: vzglyad iz nastoyashego. Moskva. 2015 g.
5. Zabludovskiy P.YE. i dr. Istoriya meditsini. Moskva. 2011 g.
6. Kadirov A.A. Istoriya meditsini Uzbekistana. Uchebnik. Tashkent. 1994 g.
7. Komilov A. SH. O nektorix vzglyadax Abu Ali ibn Sini (Avitsenni). Yaroslavskiy peadgogicheskiy vestnik. Yaroslavl. 2013 g. № 4, tom III (yestestvennie nauki).
8. Qodirov A.A. Abu Ali Ibn Sino hayoti va uning tibbiy fikrlari. Toshkent. 1995 g.
9. Qodirov A.A. O‘rta Osiyoda meditsina paydo bo‘lishi. Toshkent. 1990 y.
10. Numanov T. Bessmertniy Avitsenna, ili chemznamenit «Metod Sina». Moskva. 2009 g.
11. Ro‘zieva F. Abu Ali Ibn Sino qomusiy olim. Metodik-bibliografik qo‘llanma. Toshkent. 2004 y.
12. Rustamova X.E., N.K. Stojarova va boshqalar. Tibbiyot tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2014 y.
13. Suxomlinov K. Mediki, izmenivshie mir. Avitsenna, ili Abu Ali Xuseyn ibn Abdullax Ibn Sina. Moskva. 2014 g.
14. Xamraev M. Avitsenna o sostoyaniyax chelovecheskogo tela, zdorove i bolezni, o klassifikatsii i nomenklature bolezney. Jurnal Meditsina i zdra-vooxranenie. Sankt-Peterburg. 2015 g.
15. Xorazm Ma‘mun akademiyasining Axborotnomasi. 1/2012.
16. Simmerman Ya.S. Avitsenna - Abu Ali Xuseyn ibn Abdullax Ibn Sina. Jurnal Klinicheskaya farmakologiya i terapiya. 2017g. 26 (4).
17. Chernov S.V. Obraz lichnosti geniya. Iskateli sovershenstva. CHast III: Avitsenna. Jurnal Filosofskaya shkola №9. Moskva. 2019 g.
18. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Hoshimov S. Vatan tarix. 1, 2, 3 tomlar. Toshkent. 2020 y.

Internet saytlar

1. <https://www.gov.uz/uz>
2. <https://lex.uz/>
3. <https://www.minzdrav.uz/>
4. <http://www.ziyonet.uz/>

	<p>5. www.tma.uz</p> <p>6. http://medlib.ru</p> <p>7. http://meduniver.com</p> <p>8. http://kingmed.info/knigi/Istoriya_meditiny/book</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2023 yil 29 avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/Modul uchun ma'sullar: Norqulov S.D. - TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent Atamuratova F.S. - TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n. Gulomova A.N. - TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: Niyozova N.Sh. - TTA, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.n.</p> <p>Tashqi taqrizchi: Shodmanova S.B. - O'zR FA Tarix instituti, katta xodimi, t.f.d., professor.</p>